

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ZIGMUND FREYD
(1856-1939)

Mening dunyom befarqlik
ummonida suzib yuruvchi
kichik og'riq oroli!

2022

MAY

№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 32 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Rustamova Lobarxon Ibragimovna NAVOIYNING OILAGA MUNOSABATI	7
2. To‘xtayeva Feruza Nurali qizi ZAFAR DIYOR SHE’RIYATIDA ONA-VATAN VA TABIAT TASVIRI	9
3. X.Утемуратова ШАЙЫР ХӘМ ИЛИМПАЗДЫҢ ДӨРЕТИҰШИЛИК ШЕБЕРЛИГИН ИЗЕРТЛЕҰ	11
4. Ahmatova Marhabatxon NAVOIYNING AVLIYOLIGI	12
5. Hayitboyeva Diloromxon NAVOIYNING UCH VASIYATNOMASI	13
6. Ochilova Halima Sayfullayevna ONA TILIM - BUYUKLIKDA ENG BALAND TOG‘SAN !	15
7. Tursunova Gulhayo Ro‘ziqul qizi BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINI O‘RGANISH	17
8. Xaydarova Noila G‘ayratovna NAVOIY IJODIDA MA‘NAVIYAT- AXLOQIY G‘OYALARNING TARG‘IB ETILISHI	19
9. Ismoilova Samiyaxon Abdurashidovna ONA TILI VA ADABIYOTI FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA TA‘LIM TEKNOLOGIYALARINING O‘RNI	21
10. Dildoraxon Abdullayeva Otamurodovna, Zumradxon G‘ofurova MUQIMIY IJODI.....	23
11. Ibragimova Guljahon Saydulloyevna XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ERTAK JANRINING O‘RNI	24
12. Tilloyeva Madina Toshpo‘latovna CHO‘LPON - ADABIYOTSHUNOS.....	26
13. Usmonova Maxbubaxon Xoshimovna DARS JARAYONLARIDA INNOVATSION TA‘LIM METODLARIDAN FOYDALANISH SIFATLI TA‘LIM GAROVIDIR	28
14. Muxtorjonova Zulxumor “NAVOIY” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN	30



АДАБИЁТ

NAVOIYNING OILAGA MUNOSABATI

Rustamova Lobarxon Ibragimovna

Namangan viloyati To'raqorg'on tuman

XTBga qarashli 1-IDUM ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Navoiyning oilaga bo'lgan munosabati, jumladan, ayolning oiladagi o'rniga alohida kuzatuvchanlik bilan e'tibori tilga olinadi.

Kalit so'zlar: ishq, so'fiy, tasavvuf, ilohiy ishq, vafo ahli, malak.

Garchi Navoiy yolg'iz o'tgan bo'lsa ham, lekin oilaviy hayotga munosabati ijobiy bo'lgan. Jumladan, ayolning oiladagi o'rniga oid muhim fikrlarni “Mahbub-ul qulub” asarida bayon etgan: Er bilan ayol bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur. Uy bezagi er-xotinning tinchligidan. Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lar, odobli bo'lsa, jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli, ro'zg'or tartibli va saranjom bo'lur. Kishi bu xildagi juftga erishsa, balki bunday baxt qo'lga tushsa yashirin baxt va kulfatda sirdosh va hamdam bo'lar. Turmushdan har jafo yetsa, hasratdoshing ul va aylanuvchi osmondan har balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidin u g'am chekadi, badaning zaifligi va horg'inligidan u qiynaladi. Nosoz juft uy uchun ham ochiq, ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngling undan ozorlanad, yaramas bo'lsa, erning ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, eriga yuzqoralik qiladi. Agar er mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi...”

Ko'rinib turibdiki, ayolning oilada tutgan o'rniga tajribasi bor kishidek kuzatuvchanlik va chuqur mulohaza bilan yondashgan. Navoiyning bu fikrlari Yusuf Xos Hojibning qarashlariga yaqindir. “Qutadg'u bilik”da erkak kishi to'rt xil toifadagi ayolga uylanishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: boy, chiroyli, nasl-nasabl, farosatli. Shu bilan bir-biriga Yusuf Xos Hojib bu toifadan eng asosiysini aqillilik deb biladi va oqila ayolni boy, chiroyli, nasl-nasablilardan afzal deb biladi.

Demak, ulug' donishmandlar ayolning ma'naviy qiyofasiga asosiy e'tiborni qaratganlar. Navoiyning esa ayolga, muhabbatga munosabati birmuncha kengroq bo'lgan. Ma'lumki, Navoiy tasavvuf ilmining naqshbandiya tariqatiga moyil bo'lgan. Bu falsafa ta'limotiga ko'ra, xudo borliqda, uning hamma mavjudotlarda, jumladan, insonda zuhur etadi. So'fiylar ma'shuqalarida yaratganning jamolini ko'rganlar va sevikli yor timsolida unga intilganlar. Navoiy dostonlarining qahramonlari-Shirin va Laylida boqiy husn madh etilgan.

Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining debochasida bir qizga shaydo bo'lgani, lekin u shoir yoqtirmagan kishilar bilan yaqin bo'lib, unga e'tibor bermaganini ta'kidlaydi:

Yana bois bukim, ishq balo sho'r,

Bir o'tdin aylab erdi jonimga zo'r. Ma'nosi quyidagicha: Yana bir sabab menga baloday yopishgan sevgi edi, o'sha olov mening jonimga zo'rlik qilib turar edi.

Vafosiz, ta'bsiz, noahl anga xush,

Vafo ahli bila bitta'noxush. (Sevgilimga vafosiz, tabiati yo'q, noahllar xush ko'rinar edi, vafo ahlini tabiatidan chiqarib sevmay, yoqtirmay edi).

Malak hayli esa ashkim uchun rashk,

To'kibon ul pari har dev uchun ashk.

(Ko'z yoshlarim uning ishqida gavharday holda u yaramas kishilarga moyil).

Bir oykim bo'lg'ay ul solib manga dard,

Jahon paymou har joyu shavgard. (Menga qayg'u yuklagan ul oy, jahonni kezguvchi, har joyda bo'lguchi, kecha aylanguchi).

Manga aylab g'amu mehnatni munis,

O'zi har qayda bo'lg'ay sha'm majlis. (U go'zal menga qayg'u va mehnatni esh qilib, o'zi har joyda majlislarning sha'mi bo'lib yurar edi).



Men Navoiyning dunyodan yolg'iz o'tganiga ana shu “go'zal” sababchi, degan fikrdan yiroqman. Bu masala ulug' shoirning o'ta shaxsiy ishi va e'tiqodi bilan bog'liq nozik mavzudir. Nima bo'lganda ham Navoiy oila masalasiga juda jiddiy qaragan, ayolni oilaning asosiy ustunlaridan biri deb bilgan.

Balki, Navoiy ulug' mutafakkir sifatida bunday hilqatni uchratmagani sabab muhabbat dostonlarida pok va go'zal ishqni kuylab o'tgandir? Har holda Layli va Shirin timsoli shoirning yuksak tuyg'ularini, orzularini ifodalagan. Navoiy muhabbat deganda ana shunday ayolni tushungan.

Sanoqdan adashib ketadi odam: naziri yo'q mutafakkir-daho shoir, nosir, g'azal mulkingning sultini, xamsanavis, zullisonayn ijodkor, sohibi devon, novator, musavvir, mutasavvif...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy: “Xamsa”. “Yangi asr avlodi”, 2015-yil.
2. Adabiyot darsligi 9-sinf. “O'zbekiston nashriyoti” 2019-yil.
3. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asari. “Yangi avlod”, 2015-yil.



ZAFAR DIYOR SHE'RIYATIDA ONA-VATAN VA TABIAT TASVIRI

To'xtayeva Feruza Nurali qizi,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar

17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: 998 91 250 60 07

Annotatsiya: Maqolada Zafar Diyor ijodida Ona-Vatanimiz boyliklari va o'lkamiz tabiatining tasvirlanishi hamda shoir she'rlari yosh avlod qalbida vatanparvarlik, tabiatni ardoqlash, do'stlik tuyg'ularini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: qo'shiq, she'rlari, o'lkamiz, inson va tabiat, Vatanning maqtovi, kapalak obrazi, insoniy tuyg'ular, o'qish darsligi, binafsha, qor, bahor, suv.

Zafar Diyor bolalar adabiyotining hamma janrlarida qalam tebratdi. U bolalarning turmushi, talab-ehtiyojlari hamda orzu-tilaklarini, ularning ruhiyatini yaxshi bilganligi uchun bolalarning yoshiga, ong-u tushunchasiga moslab, g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta asarlar yaratdi.

Asli pedagog bo'lgan Zafar Diyor bolalarning xatti-harakatlarini, orzu-intilishlarini yaxshi biladi. Shoir o'zining qo'shiq va she'rlarida hamda boshqa asarlarida yosh kitobxonlarni ulug' Vatanimizning behisob boyliklari bilan faxrlanishga, kelgusida yaxshi hayot bunyod etishlari uchun astoydil kurashuvchi, ongli, madaniyatli, vatanparvar kishilar bo'lib yetishish uchun a'lo baholar bilan o'qishga chaqiradi. Sevimli bolalar shoiri o'z ijodida yosh avlodni Ona-Vatanga mehr-muhabbat bilan qarashga, tabiatni asrab-avaylashga undaydi.

Shoir serquyosh o'lkamizga bag'ishlab juda ko'p she'rlar yozdi. Bu davrdagi she'rlarida ona-Vatan boyliklarini, go'zalligi, shirin-sharbatga to'la bog'-rog'larini, undagi quvnoq hayotini cheksiz mehr-muhabbat bilan kuylaydi.

Shoirning ana shunday asarlaridan biri “Serquyosh o'lka” she'ridir. Shoir o'lkamizni:

Do'stlar, mening yurtimni

O'zbekiston, deydilar.

— Dong'i tutgan dunyoni

Bog'-u bo'ston, deydilar,

kabi misralarda ta'riflagach, “Maqtoviga yetmaydi, shoirlarning daftari”, “Bu o'lkaning ustida Quyosh ham ko'proq kular” misralari bilan Vatanning maqtovini yana ham jozibali tasvirlaydi. Zafar Diyor ijodida o'lkamiz tabiati badiiy obrazlar orqali ta'sirli ko'rsatilgan. Uning “Navbahor”, “Binafsha”, “Qushlar haqida qo'shiq”, “Kapalak”, “Yangi ertak” Bahor keldi”, “Orzu”, “Qaldirg'och” kabi she'rlarida inson va tabiat munosabati sodda, ravon tilda, ohangdor, yengil qofiyali, o'ynoqi misralarda shoirona talqin etiladi, insonni ona tabiatni sevishga va parvarish qilishga ruhlantiradi, qalblarda hayotga mehr uyg'otadi.

Shoir “Kapalak” she'rida bolalarning tabiat hodisalariga, hasharot-u jonivorlarga, ayniqsa, kapalakka qiziqishini, mehr-muhabbatini kichkintoylarga xos so'z va ohangda ifodalab, hayotga diqqat-e'tiborini oshiradi, kuchli zavq uyg'otadi, kapalak obrazi orqali kitobxonda insoniy tuyg'ularni shakllantirishga harakat qiladi:

Uch, ucha ber, ucha ber,

Go'zal bog'cham — gulshanda.

Sira ozor bermayman.

Sevgim, fikrim ham sanda.

Kapalakjon, kapalak,

Qanotlaring ipakdek;

Do'st bo'laylik ikkimiz,

To'xta, so'zlayin andek!

Zafar Diyorning “Binafsha” she'rini yoddan bilmagan o'quvchi bo'lmasa kerak. She'r o'zining ravon o'qilishi, qofiyalarining jarangdorligi bilan o'quvchini o'ziga tortadi:

Binafshaxon, binafsha,

Kulishlaring chiroyli;

Bog'imizda ochilib,

Turishlaring chiroyli.

O'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga she'r, qo'shiq, doston va hikoyalari bilan juda katta



hissa qo'shgan Zafar Diyorning asarlarini bolalar hamon sevib o'qiydilar va yuksak qadrlaydilar. Boshlang'ich sinf o'qish darsligida Zafar Diyor ijodidan namunalar berilib, 2-sinfda “Qor” she’ri, 3-sinfda “Bahor yaqin”, 4-sinfda “Suv bilan suhbat” she’rlari o’rganiladi.

“Qor” she’rida qor yog’ishining tabiatga va inson salomatligiga ta’siri, qishki bolalar o’yinlari sodda va ravon tilde ifoda etiladi. She’rda qor yog’ishi tasviri o’quvchini zavqlantiradi, bolada qor yog’ayotganda dalada yugirib o’ynash hissini uyg’otad. “Bahor yaqin” she’rini o’qigan kitobxon ko’z o’ngida qishning qorong’i va sovuq kunlari o’tib, yer yuziga quyosh o’z zarrin nurlarini dalalarga, bog’larga, qirlarga, tog’larga sochishi, butun olam gul-chechaklar bilan bezanishi namoyob bo’ladi. “Suv bilan suhbat” she’rida suvning tabiatdagi ahamiyati, butun jonli va jonsiz mavjudot suv bilan tiriklik g’oyasi o’z ifodasini topgan.

Zafar Diyorning she’rlari yosh avlod ong-u shuurida ona vatanga, tabiat olamiga mehr-muhabbat tuyg’ulartini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Suyumov, Mamasoli Jumaboev “Bolalar adabiyoti”. T.-1995.
2. O’qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. Toshkent-2016.
3. O’qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. Toshkent-2017.



ШАЙЫР ҲАМ ИЛИМПАЗДЫҢ ДӨРЕТИЎШИЛИК ШЕБЕРЛИГИН ИЗЕРТЛЕЎ

Х.Утемуратова,

филология илимлари кандидаты, доцент
Ўзбекистон Республикаси Илимлар Академияси
Қарақалпақстан бөлими Қарақалпақ гуманитар
илимлар илим-изертлеу институты, Нөкис қаласы

Аннотация. Ушбу мақолада ёзувчининг, драматург, олим ва шоирнинг ижодий лабораторияси ва маҳорати масалалари ҳусусида сўз юритилади. Олимлар Т.Н.Александрова, Р.Г.Фатхрахманов, З.У.Бекбергенова, Н.Ш.Зиедуллаева ва Э.Салимзяновалар ўзларининг тадқиқотларида бу тўғрисида фикр юритади. Мақола қарақалпоқ адабиётшунослигидаги долзарб муаммоларининг бирига бағишланган.

Калит сўзлар: Ижод, ижодий маҳорат, назм, ижодкор стили, бадиий адабиёт, повесть, поэма, баллада, композиция.

Ж.Хошаниязов илимпаз, шайыр, аўдармашы және жазыўшы сыпатында халқымызға танылды. Шынында да, шайырлардың, драматурглердің, илимпазлар менен жазыўшылардың дөретиўшилиқ лабораторияларын изертлеп қарағанда, барлығына тийисли улыўмалық белгилер менен бирге жеке-дара қәсийетлер де-талантларының дәрежеси, өмирди бақлаўшылық, өмирдеги-турмыста тәжирийбесиниң орны киби сыпатлары сезиледи [1;106-111:7.29]. «Ж.Хошаниязов кең жәмийетшиликке қарақалпақ фольклоры менен әдебиятын, қала берсе, этнография илимин изертлеўши илимпаз сыпатында да жақсы таныс», - деп жазады филология илимлериниң докторы З.Бекбергенова [4:115]. Шайыр, жазыўшы, илимпаз Ж.Хошаниязов дөретиўшилиқ лабораториясына тән негизги белгилерден бири-ол автобиографиялық, өмирбаянлық материалдың көплек қолланылыўы болады [2;114-116]. «Далаларым, бабаларым», «Жасыл мәўсим», «Абылайсан», «Қуяштың жасы», «Балалықтың булдыр аспаны» [5;128.6:58-60] сыяқлы китаплары белгили болды. Ж.Хошаниязов 2018-жылы Ташкент қаласында, Наўайы атындағы Өзбек тили, әдебияты ҳәм фольклоры институтының Арнаўлы Кеңесинде «Қарақалпақ қаҳарманлық дәстанларының пайда болыў дереклери» деген темада филология илимлериниң докторы илимий дәрежесин алыўға миясар болды. Илимпаз қарақалпақ халық дәстанларындағы халқымыздың тарийхый турмысына дерекли мағлыўматларды: үрп-әдетлери, дәстүрлери, дийханшылық, шарўашылық, кәсиплери, өнерментшилиқ, белгили тужырымларды ҳәм тағы басқа тийисли мағлыўматларды илимий айланысқа қосып олардан нәтийжели жуўмақлар шығарған. Қарақалпақ фольклористикасында жәмийетлик ҳәм турмыслық факторлардың эпикалық баянланыў жағдайларын үйрениў мәселеси ҳәзирги күнде жаңа илимий тәжирийбе сыпатында баҳаланады ҳәм илимий шешимлердиң анықлығын талап етеди. Бунда қарақалпақ халық мифлериниң миллий дәстанлардың пайда болыўындағы орны анықланған. Мифлерди тарийхый эпикалық дерек сыпатында пайдаланыў дәслепки тәжирийбелердиң бири болып, изертлеўшиниң бир қатар машқалаларды ашыўына тийкар болды. «Қарақалпақ қаҳарманлық дәстанлары-миллий қәдириятлар дәреги» атлы (Нөкис: Илим, 2017, 92бет) монографиясында пикирлер жуўмақланады.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Ахметов С. Теориялық ҳәм әдебий-критикалық пикирлердиң тереңлиги ушын.- // Әмиўдәрә, 1991, 7-сан, 106-111-бетлер
2. Бекбергенова З. Үмитлер кеўилди тербетип. - // Әмиўдәрә, 2007, 6-сан, 114-116-бетлер.
3. Бекбергенова З. Жазыўшы ҳәм шеберлик. - Нөкис. Билим, 2020, 120 бет.
4. Мәмбетов К. Әдебият теориясы, - Нөкис: Билим, 1995, 191-бет
5. Мухаммед Хошан. Мәўсимлер аралығы. - Тошкент, 2021, 128 бет.
6. Мухаммед Хошан. Адам атын ардақлап. - // Әмиўдәрә, 1989, 10-сан, 58-60-бетлер
7. Салимзянова Э.Ш. Творческая лаборатория Анвара Шарипова (Особенности научного и литературного мастерства). - Автореф. на соискание канд.филол.наук.-Уфа, 2016, 29 с.



NAVOIYNING AVLIYOLIGI

Ahmatova Marhabatxon

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman
1-IDUM ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiyning Husayn Boyqaro davridagi turli nizolardan azob chekkan paytdagi xotiralari o'z aksini topgan. Sulton Husayn Mirzo saltanatiga tahdid solgan Shayboniyxon haqida ham fikrlar berilgan. Alisherning nima uchun haj safariga yuborilmaganlik sababi ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Sulton Husayn Mirzo, Mashhad, Xoja Ubaydullo Ansoriy, Astrabod, Mo'min Mirzo, Xondamir, filhol, Badiuzzamon.

Navoiy salomatligining yomonligiga qaramasdan (ehtimolki, xuddi shuning uchun, ya'ni o'lim yaqinlashayotganini sezgani uchun) juda shoshib yangidan-yangi ijodiy rejalarni amalga oshirish bilan band ekan, "falak" unga shohning dasturxonidagi "asalga yashirilgan nayzalar"ni ko'rsatishda davom etar edi.

"Ravzatus-safo"dan: "Nizomulmulk va tarafdorlarining hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi.

Afzaliddinga qarshi ishlari va podshoh oilasidagi nizolar tez fursatda uning tanazzuliga sabab bo'ldi.

Afzaliddin mamlakatdan tashqarida qochib yurganida, Nizomulmulk uning ukasi Aminiddin Mahmud bilan chiqisholmay, uni zindonga soldi. Nizomulmulk yana Sulton Husayn Mirzoning nabirasi Mo'min Mirzoning o'ldirilishiga sababchilardan biri bo'ldi. Badiuzzamon Balhga hokim etib tayinlanganda, Astrabodni o'z o'g'li Mo'min Mirzoga berib ketgan edi. Sulton Husayn o'z tomonidan Astrabodga o'zining sevikli xotini Hadichabegimdan tug'ilgan Muzaffar Husaynni hokim qilib tayinladi, natijada sulton bilan uning katta o'g'li Badiuzzamon o'rtasida urush boshlandi. Alisher Navoiy ota va o'g'ilni yarashtirish uchun podshoh topshirig'i bilan Balxga borgan chog'da, Sulton Husayn Mo'minni qo'lga olish haqida yashirin buyruq berdi va buyruq Badiuzzamon qo'lga tushdi; Navoiyning safari natijasiz chiqdi. Badiuzzamon sulh tuzishdan bosh tortdi, ammo Mo'min Mirzo baribir qamoqqa olindi. Bu orada Hadichabegim Nizomulmulk bilan birga Sulton Husaynning mastligi chog'ida undan Mo'min Mirzoni o'ldirish haqida farmonga qo'l qo'ydirib olishadi. Sulton hushiga kelib, farmonni bekor qilib, yangi farmon yuboradi, lekin Mo'min Mirzo o'ldirilib bo'lingan bo'ladi.

Sulton Husayn mast holda Biy Jangiya farmon yozishni buyuradi. Bu farmon olinishi bilan oq Muhammad Mo'min Mirzo hech to'xtovsiz yo'qlik dunyosiga jo'natilishi kerak edi.

Farmon yarim kechada keldi. Qutvol farmonni ijro etdi, ertalab shaharda mish-mishlar tarqaldi. Qiyomat qo'ngandek bo'ldi. Butun shahar erkak va ayollari qora libos kiydi. "Bog'i Zog'on" yonidagi "Bog'i Nav"da barcha ta'ziyaga yig'ildi. Huroson shoirlari marsiya o'qishga kirishdilar. Zamonining malikul-kalomi Gulxaniy Astrabodiyning quyidagi qit'asi shuhrat topdi:

Bozori zulm boz rivoji digar yoft,
Zin kofire, ki Mo'mini dinro shahid kard.
On jo Yazid omadu kori Husayn soxt,
In jo Husayn omadu kori Yazid kard.

Xondamirning "Habibus –siyar" asarida shunday yozadi: "Mo'min Mirzo o'ldirilganda Alisher Navoiy Mashhadda edi.

Mamlakatda davom etayotgan nizolar Navoiyning o'z shaxsiy hayotiga ham ta'sir etardi. Hatto shoir haj safariga ham bora olmaydi. Sulton Husayn Alisherga hajga bormaslik evaziga uning xohlagan istagini bajarishni aytadi. Shunda Alisher Hirotdagi mashhur Xoja Ubaydullo Ansoriy xonaqohiga jo'robkash, ya'ni ish boshqaruvchi etib tayinlanadi.

Alisher Navoiy bo'lib o'tgan voqealardan qattiq aziyat chekar, qachondir Sulton Husaynning davlati tanazzulga uchrashini bilardi. Bu haqda Sulton Husaynga ko'p bora aytadi, biroq buning foydasi bo'lmaydi.

Avliyo yaxshi odob, yaxshi xulq-sodat kaliti deb biladi. Zero, Alisher Navoiy barcha illat va nuqsonlardan holi bo'lmoqni inson kamolotining asosi, deb baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Navoiyning qalb daftari". Izzat Sulton. T. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969-yil.

2. "Abadiyat gulshani". O'tkir Rahmatov. T.: "Sharq", 2013-yil.



NAVOIYNING UCH VASIYATNOMASI

Hayitboyeva Diloromxon

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman
1-IDUM ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiyning uch vasiyati hamda “Lisonut-tayr” masnaviysi haqida so'z boradi. Aynan Navoiy keksaygan vaqtda qanday faoliyat olib borgan haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar. “Lisonut-tayr”, Simurg', Husayn Boyqaro, ko'ngil, ranj, xatm qilmoq, “Muhokamatul-lug'atayn”, madh, she'r, turk ulusi.

Samarqand qo'ldan ketgan bir vaziyatlar...Navoiy faqat tundagina ishlaydi, kunduzi esa mamlakat ishlari bilan band bo'lardi.

Navoiy yangi-yangi rejalar bilan band edi, ammo Sulton Husaynga madh oqishni tark etmagan bir vaziyat.

Navoiyning yaratayotgan asarlari kelajak avlodlar uchun huddi vasiyatnomadek tuyilardi. U keksalik chog'ida “Xazoyin ul-maoniy”ni 1498-yilda tugallagan. Bu asarlar shoir haqidagi avtobiografik asar hisoblanadi.

904-hijriy, milodiy 1499-yilda Navoiy “Lisonut-tayr”ni yozdi. Bu shoirning o'z bolaligi davridan beri ko'ngilga tugib yutgan orzusining ro'yobga chiqishi edi. Asarda haqiqatni o'rnatuvchi Simurg' qushini axtarib uzoq va azobli yo'lga chiqqan qushlar tilidan turli masalalarga javoblar aytiladi. Bu javoblardan eng muhimi shuki, ming azobdan keyin bu qushlar-axtarganlari Simurg' o'zlaridan boshqa hech kim emasligini payqaydilar.

“Qilib Simurg' o'ttiz qush havas, o'zlarini ko'rdilar ul si murg' bas”.

Navoiy o'zi “Lisonut-tayr”ni, bundan avvalroq 1496-yilda yozilgan va o'tmishning eng ko'zga ko'ringan mutasavviflariga bag'ishlangan “Nasoyim ul-muhabbat” (“Muhabbat shabadalari”) kitobi bilan bir qatorda, “haqiqat sirlarini majoziy suratda ko'rsatib berguvchi” asar deb hisoblar edi. “Muhokamatu-lug'atayn”dan: “Chun “Lisonut-tayr” ilhoni (kuylari) bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorini majoz suratida ko'rguzupmen”

Asar qay tarzda yozildi-yu, Navoiy endi, keksayganda qanday ishlar edi?

“Lek chun yodimda erdi ul kalom,
Yoshurun takror etar erdim mudom.
Ondin o'zga so'zga maylim oz edi,
Qush tili birla ko'ngul hamroz edi.
Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.
To'rt devon birla nazmi panj ganj,
Dast berdi chekmayin anduhu ranj.
Nazmu nasrim kotibi taxminshunos-
Yozsa, yuz ming bayot etar erdi qiyos...
Oqibat ko'rdimki umr aylar shitob,
O'lsamu, qolsa deyilmay bu kitob...
Oltmishqa umr qo'yg'onda qadam,
Qush tilni sharh etkali yo'ndim qalam...”

Navoiy turkiyda ulug'vor adabiyot yaratgan bo'lsa ham, uning milliy adabiyot uchun kurashi zamona shoirlarining ko'pchiligi tomonidan qadrlanmadi.

Avliyo endi o'z ijodiy qahramonlarining ahamiyatini nazariy nazariy jihatdan asoslashga va zamona ham kelajak shoirlariga turkiy she'riyat uchun kurashni davom ettirishni vasiyat qilib qoldirishni vasiyat qilib qoldirishga qaror qiladi.

“Muhokamatul lug'atayn”da fors tilini yerga urmagan holda turkiy til bilan chog'ishtiradi. O'zi ham fors tilida ko'plab asarlar bitganini faxrlanib yozadi.

Navoiy vafotidan oldin ikki oycha ilgari tamomlagan asari “Mahbubul-qulub” (“Qalblarning do'sti”, “Ko'ngillarning sevgani”)dir. Shoir ushbu kitobi orqali jamiyatning hamma sinf va tabaqalariga baho berib chiqadi, davrning hamma yirik falsafiy va axloqiy masalalariga o'z qarashini ifoda etadi. Bu kitob Navoiyning uzoq, mashaqqatli va rohatbaxsh onlarga boy hayotida



orttirgan tajribasining “qaymog”i edi.

Buyuk shoir va davlat arbobi hayotining aldoqchiligi va ” har ishda zabunliq” qilgani haqida soʻzlar ekan, bundan dastavval uning oʻz siyosiy faoliyatidan kutgan umidlarining puchga chiqqanini tushunish kerak, albatta.”Mahbub ul-qulub”da Navoiyning podshohlar masalasiga bir necha bor qaytishi va har safar achchiq-achchiq xulosalar chiqarishi ham shu fikrlarni tasdiq etadi. Podshohlarga yaqin boʻlishni istamoq-oʻz oʻlimi uchun balo tiygʻini ravo koʻrmakdir. Podshoning kulishlari chaqmoqqa oʻxshaydi: yorugʻligi befoyda, ammo kuydirishi tirik tandan asar qoldirmaydi”.

Alisher Navoiy oʻzbek adabiyotining qaysi joyida boʻshliq yoki yetishmovchilik sezgan boʻlsa, ijod tajribasi bilan oʻsha boʻshliqni toʻldirib, kamchilliklarga chek qoʻygan.

Foydalanilgan asarlar:

1. Izzat Sulton.”Navoiyning qalb daftari”.T.Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.1969-yil.

2. Alisher Navoiy.”Xazoyin ul-maoniy”.1498-yil.

3. Ibrohim Haqqul.”Tasavvuf va sheʼriyat”.T.Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi.1991-yil.



ОНА ТИЛИМ - БУЙУКЛИКДА ЕНГ БАЛАНД ТОГ‘САН !

Ochilova Halima Sayfullayevna

Navoiy viloyati Zarafshon shahri 12-maktab

Telefon raqam :93-664-15-38

Oozofjon@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada O‘zbek tiliga “ Davlat tili haqida”gi qonuni, o‘zbek tilining rivojlanishi, uning‘rganilishi , lug‘at boyligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘z: o‘zbek tili, millat, madaniyat, ma‘naviyat, jamiyat,tafakkur, Turizm sohasi, A.Navoiy, A.Avloniy,agglyutinativ tillar,”Buyuk kelajak”guruhi, urf-odat,”Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch”

Ona tili - millatning ruhidir.O‘zbekiston mustaqillikkka erishish ostonasida mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan milliy ma‘naviyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan ona tilimizga huquqiy maqom berish masalasi kun tartibiga qo‘yildi va 1989-yil 21-oktabr kuni “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida”gi alohida qonuni qabul qilindi.

O‘zbek tili o‘tgan yillar davomida mamlakatimizdagi yuzdan ortiq millat va elat vakillarini o‘zaro bog‘laydigan mehr-oqibat tiliga aylandi.

Bundan besh asr muqaddam A.Navoiy “Turk nazmida chu men tortib alam, Ayladim ul mamlakatni yakqalam”, deb yozgan edi.Alisher Navoiyning jahongirligi o ‘zbek millatining ma‘naviy jahongirligidir.Ya’ni ul zot ona tili bayrog‘ini baland ko‘tarib, butun el-ulusni, yurtlarni shu bayroq ostida birlashtirdim, deb iftixor qilgan.

O‘zbek tilining qadri kundan- kunga yuksalmoqda. O‘zbek tili bugungi kunda ko‘plab davlatlarning universitetlarida va yuzdan ziyod maktablarida o‘rganilmoqda.Bunga yaqqol misol Nyu-yorkning Bruklin shahrida o‘zbek muhojirlar farzandlari uchun o‘zbekcha maktab ochildi. Amerikaning sakkizta universtetida o‘zbek tili o‘qitiladi. Buyuk ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy”Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotidir”, deb aytgan.

“O‘zbek tili oddiy til emas, u agglyutinativ tillardan biri bo‘lib, xushmuomalalikning turli shakllariga egadir.

O‘zbek tilini mukammal o‘rganish va uni targ‘ib etishimiz kerak. Bizning ona tilimiz ma‘nolarga boy til, uning rivojlanishi va yuksalishida turizm sohasi ham alohida o‘rin tutmoqda. Chunki turizm sohasining rivojlanishi o‘zbek tilini va madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirmoqda.

O‘zbek tili boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan grammatik elimentlarga egadir. Shuning uchun ushbu tilni o‘rganayotganlar turli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Chunki tilimizni o‘zlashtirish asosida ular nutqning butunlay yangi qirralari bilan to‘qnash kelishadi. Biroq bu til bilan ular umidsizlikka tushmasliklari zarur, har qanday tilni o‘rganish yangi hamda qiziqarli madaniyat bilan tanishishni, boy leksikani o‘rganishni bildiradi.O‘zbek tilini o‘rganayotgan chet elliklarga O‘zbekistonga kelishini taklif qilgan bo‘lardim. Bu yerda ular tabiiy go‘zalliklarni ko‘rib, ajoyib madaniyati va xushmuomala xalqi bilan tanishishlari mumkin.Bularning barchasi til o‘rganish uchun muhimdir.

Yaponiya, Xitoy, Koreya yoshlarining o‘zbek tiliga qiziqishlari kuchli va ular o‘zbek tilida nutq tuzish imkoniyatiga ega. AQSH, Yaponiya, Koreya, Xitoy,Turkiya, Ukraina, Ozarbayjon kabi o‘ndan ortiq xorijiy davlatlar universtetlarida ham o‘zbek tili fan sifatida ”Sharq tillari” kafedrasidagi fanlar sirasida o‘qitiladi.O‘zbek olimlari bu ta’lim maskanlari bilan hamkorlik qilib, o‘zbek tili bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yozishlari kerak”, deydi. ”Buyuk kelajak” guruhi eksporti Janubiy Koreyaning Pusan chet tillar universteti proffessori amaliy tilshunoslik fani doktori Azamat Akbarov.

Millat, davlat, jamiyat taraqqiy qilar ekan uning tili va tilshunosligi ham yuksalib boraveradi. Davlat, jamiyatdagi o‘zgarishlar birinchi navbatda tilda, xu susan uning leksikasida – lug‘at boyligida o‘z aksini topadi. Modomiki til ijtimoiy harakterga ega ekan ijtimoiy hayotdagi taraqqiyot tildagi taraqqiyotni belgilab beradi.

Til millatni millat qiluvchi vosita, u millatning ko‘zgusidir. Zero,tilimizda bizning qiyofamiz, ma‘naviyatimiz aks etadi .Bugungi kunda o‘zbek tili milliy mafkuramizning tarkibiy qismlaridan



va mustaqilligimizning bosh belgilaridan bo‘lib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,tilni sevish va uni ardoqlash,millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi.Olimlarning aytishicha til yashab qolishi uchun undan kamida bir million kishi so‘zlashishi kerak ekan.Biroq bunday tillar duyoda 250tadir.O‘zbek tili ham mana shu 250taning ichida ekani quvonarli albatta.Har qaysi xalqning turmush tarzi,urf-odatları,madaniyati uning tilida o‘z ifodasini topadi.Til millat ko‘zgusi,deb bejiz aytilmagan.Xalqimizning necha asrlik boy tarixi,ko‘hna va serqirra madaniyati o‘zbek tili ta’sirida shakllangan.Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib,dunyoni lol qoldirgan.Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi,yoshlarimiz yutuqlari,sportchilarimiz g‘alabalari sharafiga o‘zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir.

Biz o‘z ona tilimizni asrab- avaylashimiz,uning nufuzini oshirishimiz,go‘zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz,dunyoga tanitishda o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.”Til yashasa millat yashaydi”.Agar biz o‘z tilimizning ko‘rkamligi,boyligini dunyoga tarannum etsak,millatimiz yanada charog‘on bo‘ladi va birligimiz mustahkam bo‘ladi.Zero rus tarixchisi Shobelov aytganidek”Millatni yo‘q qilish uchun u yerga qurol ko‘tarib borish shart emas,uning tilini, ma’naviyatini, adabiyotini yo‘q qilish kerak, shunda millatning o‘zi yo‘q bo‘lib ketadi” degan fikri naqadar to‘g‘ri ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch”asarida ona tiliga g‘oyat aniq, lo‘nda ta’rif berilgan:”o‘zlikni anglash,milliy ong va tafakkurning ifodasi,avlodlar o‘rtasidagi ruhiy ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili-bu millatning ruhidir”.

Ishonchimiz komilki, o‘zbek tili va madaniyati jahon sivilizatsiyasida yanada ravnaq topib, purma’nolog, jozibadorligi, talaffuzi va ohangli musiqaday jarangdorligi bilan jahon ahlini o‘ziga rom qila oladigan darajasiga ko‘tariladi va dunyo xalqlari bu tilni sevib o‘rganib, samimiy hurmat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”

2.m.kun.uz>news>

3.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent: O‘zbekiston 2010



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINI O‘RGANISH

Tursunova Gulhayo Ro‘ziqul qizi,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: 998 93 314 13 20

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda badiiy matnlar ustida ishlash jarayonida o‘zbek xalq maqollarini o‘rganish, maqollarning o‘quvchilar ma’naviy va axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Savod o‘rgatish, she’r, hikoya, ertak, ibrat namunasi, xalq hikmati, qissadan hissa, tahlil, didaktik o‘yinlar, topshiriqlar, umumlashtiruvchi dars.

O‘zbek xalq maqollari asrlar davomida xalqimizning hayot tajribasini badiiy jihatdan ifodalovchi so‘z san’ati namunalari sifatida yashab kelmoqda.

Maqollar uzoq o‘tmishda bo‘lgani kabi bugungi kunda ham yosh avlodni komil inson darajasiga yetaklovchi asosiy tarbiya vositalaridan sanaladi.

Maqollar shaxsning ijobiy va salbiy xususiyatlari tarbiya va qayta tarbiyalash maqsadlari sifatida namoyon bo‘lib, odamlarning xatti-harakati va xarakterini har tomonlama yaxshilashni nazarda tutadi. Shu jihatdan maktabda o‘zbek xalq maqollarini o‘rganishga e’tibor beriladi. Jumladan, boshlang‘ich sinfda maqollarni o‘rganish ona tilidan har xil mashqlarning tarkibida hamda adabiy ta’limda maqollar matni ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Savod o‘rgatish davri maqollarni o‘qish va o‘rganishning tayyorlov bosqichi bo‘lsa, 1—3-sinf o‘qish darslarida maqollarni ifodali o‘qish va yod olishga, mavzuga doir maqollar aytishga ahamiyat beriladi. Shuningdek, 1-2-sinfda maqollarni o‘rganishga alohida 1 soatlik dars ajratilib, maqollarning ibrat maktabi ekanligi yuzasidan o‘quvchilarda bilim va tushunchalar shakllantiriladi. 3-sinf “O‘qish kitobi”da she’r, hikoya, ertaklarni o‘rganishga bag‘ishlangan darslarda matn mazmuniga taalluqli maqollar berib boriladi, shu jumladan, maqol janri bo‘yicha 1 soatlik dars tashkil etiladi. 4-sinf “O‘qish kitobi”da berilgan badiiy matnlar ustida ishlashda maqollar namunasi kam berilgan. “Maqollar” mavzusiga 1 soat ajratilgan. 3-sinf o‘qish darslarida badiiy matnlar ustida ishlash yuzasidan berilgan savol va topshiriqlardan keyin mavzu mazmuniga doir maqollari keltirilgan. Masalan, Xurshid Davronning “Vatan mo‘tabardir” hikoyasida “Ona yerning tuprog‘i ona sutidek aziz”, Aziz Abdurazzoqning “Vatanni suymak” she’rida “O‘zga yurtning gulidan, O‘z yurtningning cho‘li yaxshi”, Yayra Sa’dullayevaning “Yordam berdi” hikoyasida “Odob – kishining zeb-u ziynati” va hokazo.

O‘qish darslarida badiiy asarning g‘oyaviy mazmunida maqolning ibrat namunasi ekanligi ochib beriladi. Masalan, 3-sinfda Hakim Nazirning “Bebaho boylik” hikoyasida Durdona bobosiga: «“Vaqtning ketdi – naqding ketdi” degani nima o‘zi?» degan savolni beradi va hikoyada bobo dunyoda eng qimmatli boylik vaqt ekanligi, vaqt hammaga shunchalar azizligini bir hikoya orqali nabirasiga tushuntiradi va shu sababli uni vaqt bebaho boylikdir, deydi. 4-sinfda “Yusuf Xos Hojib” hikoyasida “Yomonlik go‘yo o‘t, yondirar, yoqar, O‘tishga kechig yo‘q: u soy tez oqar», deb matnda maqolning xalq hikmati ekanligi tavsif etiladi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning “Har kim ekanin o‘rar” rivoyatida «El aro bor bir matal: “Har kim ekanin o‘rar”», “Ilm afzal” ertagi “So‘nggi pushay-mon o‘zingga dushman” maqollari qissadan hissa sifatida berilsa, “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertagida “Hunarli kishi xor bo‘lmas” maqolining ertak mazmuniga qanday aloqasi borligini tahlil qilish topshirig‘i bajariladi.

Ona tili va o‘qish darslarida “Davom ettir”, “Maqollar tilsimi”, “Maqollar zanjiri”, “Maqolni to‘ldiring” kabi turli didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarga xalq maqollarini o‘rgatishimiz kerak. Bolalarga “Asar g‘oyasiga oid maqol aytin”, “Maqollar asosida krossvord tuzin”, “Maqollar asosida rebus yarating” kabi topshiriqlarni bajartirish, “Maqollar aytish musobaqasi”, “Maqollar mushoirasi” kabilarni tashkil etish o‘quvchilarning ma’naviy jihatdan tarbiyalanishiga, nutqini boyitishga, aqliy bilimini oshirishga xizmat qiladi.

Keng qamrovli ta’limiy axborotlar qatorida kuchli tarbiyaviy mazmunni aks ettiradigan o‘quv materiallari sifatida 3-4-sinf o‘qish darsida berilgan “Maqollar” mavzusini o‘tilishi ham o‘quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytiradi, o‘quvchilarning tarbiyalanishiga, ma’naviy jihatdan ulg‘ayishiga daxldor hisoblanadi.



3-4-sinf o‘qish fanidan “Maqollar” mavzusini o‘tishda maqol janrini o‘rganish yuzasidan umumlashtiruvchi darsni tashkil qilish zarur. Bunda o‘quvchilarga yod olingan maqollar mavzusiga qarab guruhlash ustida ish olib boriladi. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalanish mumkin:

1. Maqolni ifodali o‘qib, uning mazmuni ustida ishlash.
2. Maqoldagi so‘zlarning ma‘nosini izohlash.
3. Badiiy til vositalari ustida ishlash.
4. Maqolni yod oldirish.
5. Maqol matnidagi qarama-qarshi ma‘noli va ma‘nodosh so‘zlarni aniqlash hamda ularning maqolda ifoda etilgan g‘oya bilan aloqasini ochish.
6. O‘tilgan ertak yoki hikoya mazmuni va g‘oyasiga mos maqol topish.
7. Maqollarni mavzular bo‘yicha guruhlash.

Yuqoridagi ish turlari orqali o‘quvchilar maqollarning xususiyatlari haqida ma‘lumot oladi hamda maqollar mazmunini to‘liq anglab oladi, o‘quvchilar ongida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm olishga intilish, kamtarlik, halollik kabi xislatlar shakllanadi. O‘quvchilar ko‘rgan-bilgan, eshitgan, o‘qiganlari yuzasidan xulosa chiqarishni, o‘z nutqida maqollardan foydalanishni o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq maqollari yoshlarda vatanparvarlik, mehnat-sevarlik, odob-axloqlilik, halollik, sofdillik va boshqa insoniy fazilatlarning shakllanishiga, ularning tafakkur olamini boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., “O‘qituvch”, 1990.
2. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. Toshkent-2016.
3. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. Toshkent-2017.
4. O‘qish: 3-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. “Sharq”, 2016.
5. O‘qish: 4-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. “Sharq”, 2017.



NAVOIY IJODIDA MA'NAVIYAT- AXLOQIY G'OYALARNING TARG'IB ETILISHI

Xaydarova Noila G'ayratovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahri 12 - maktab

Tel :998977973353

Oozodjon@gmail.com

Annotatsiya : Bu maqolqda Alisher Navoiyning inson hayotida limning ahamiyati hamda jamiyatda limning rivojlanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'z: Alisher Navoiy , madaniyat, jamiyat ,ilm mamlakat podshohlari donishmand,zolim podshohlar ,davlat hukumdorlari ,xalq manfaatlari

Buyuk mutafakkir olim fan va san'atning turli sohalarini rivojlantirish bilan birgalikda ta'lim tarbiya ham takomillashtirishga e'tibor bergan . Uning hamma asarlarida tarbiyaga oid qarashlar o'z ifodasini topgan .Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib , ta'lim – tarbiya to'g'risidagi fikrlarni ifodalagan bo'lsa ta'limiy – axloqiy asarlarida esa komil insonning mazmuni yo'llarini ifoda etadi. Uinson kamolotida ilm – fanning o'rni aql – idrokning ahamiyati ,aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib bradi.

Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan deb biladi . Uinsonni xalqni ,nodonlikdan jaholatdan qutqaruvchi omil deb ta'riflaydi. Shunga ko'ra o'z asarlarida kishilarni ilm – ma'rifatga chorlaydi. Ilm olish har bir insonning burchi deb biladi . chunki ilm egallashdan maqsad ham xalqning , o'z mamlakatining baxt – saodatli , farovon hayot kechishi uchun xizmat qilishda iboratdir deb ta'kitlaydi . U bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi . Bunda u fozillarni yig'ib , ular orqali ilm – fanni taraqqiy etishga e'tibor beradi.

Alisher Navoiy dong'i ketgan buyuk shoirgina emas , o'z davrining eng ma'lumotli kishisi , fan va sa'ning turli sohalarini asosli egallagan olim va mutafakkir , hushyor ,tadbirli , va davlatning istiqbolini ko'ra biluvchi keng qarashli bir soyosatchi ham edi . Navoiy siyosiy qarashlarini mohiyati munavvar podsholikdir . Davlat taraqqiyoti va uni inqirozga yuz tutishi raiyatning kelajagi podshohga bog'liq , degan fikr bo'ladi . Podshoh esa yo odil , yo zolim bo'ladi . Davlatning taraqqiyoti uchun podshoh qonunga va adolat pirinsipiga suyanish kerak . Shoir o'zining qasidalarida, maktublarida va boshqa ko'pgina asarlarida shu siyosiy g'oyani tashviq etadi. Navoiy ijodida podshoh va shahzodalar qarata aytilgan she'rlar va qasidalar juda ko'p . Lekin bu qasidalar faqatgina maqtovdan iborat bo'lmay , ularning aksariyati nasihatlardan iborat . Donishmand shoir qonun va adolat shoiri butun davlat tashkilotida tamomila ideal shaklda tadbqiq etilishi kerak;igini ilgari suradi. Navoiyning fikricha ,podshoh mamlakatning hamma mayda – chuyda ishlarni chuqur bilishi aralashishi kerak zulm ahlini xokizor etib, ezilgan xalqning shikoyatlarini har kun o'zi eshitishi lozum. Shunday qilish kerakkim, “ Ulus “ podshohning oldiga kelib arz – dodini ayta olsin , podshoh tabasum bilan tinglasin va uning ishini odillik bilan hal etsin . Navoiy Husayin Boyqaroni shunday adolatli bo'lishga undaydikim hatto sharqda “ Adolat timsoli” bo'lib afsonalarga qorishgan No'shiravon ham hayratda qolsin. Navoiy hamma vaqt “ Ulus“ gamini yeydi . Podshohdan tortib butun ma'murlarni shu xalq foydasiga ishlashga undaydi xalq uchun tinch va erkin turmushni podshoh irodasi bilan barpo qilish mumkin deb xayol qiladi . Shu sababli u ko'pgina asarlarini butun ilmlarni egallagan odil podshoh obrazini yaratishga , mamlakat uchun zulmning falokatli natijalarini va aksincha taraqqiyot ham obodonchilik uchun ham adolatning fazilatlarini jonli, yorqin misollar bilan o'qitishga harakat qiladi. Katta , kuchli, boy, birdavlat tuzish tarafdori bo'lgan shoir bu maqsadga xalqparvarlik va adolat orqali erisha bilishga ishonadi . 1483- 1485 – yillarda yozilgan “ Xamsa “ besh dostonidan iborat “ Hayrat ul – abror “ (“ Yaxshi kishilarning hayratlanishi “) “ Xamsa “ ning birinchi dostonidir dostonning uchunchi maqoloti sultonlar to'g'risida Navoiyning ta'kidlashicha , podshoxlarning adolati tufayli mulk obod bo'ladi . Sulton adolati chashmasidan oqqan zilol suvlar mamlakat bo'stononi obod etishi kerak el osoyishta va rohat – farogatda yashashi lozim chunki “ Qur'on”da ham Inaloha ya'miru iladli val - - ehson” (“ Ularga Olloh adl va ehsonnibuyurgan “) deyilgan .

Afsuski ,shoir shohlar saroyida buning butunlay teskarisini ko'radi. Maqolotning sarlavsidayoq u sultonlarni ”Zulm bog'ida may ichuvchilar “ deb qoralaydi . Ular mamlakatni obod qilish bilan shug'ullanmaydilar , Allohning amriga zid ish tutadilar uchunchi maqolotda shoir o'z burchini unitib aysh – ishrat , buzuqlik va zulmga berilgan sultonlarning jirkanch basharasini, kirdikorlarni



qahr – g‘azab bilan qoralaydi , ularni halokatli yo‘ldan qaytib , el – yurt g‘amini yeyishga mamlakat obodonligi , xalq faravonligini o‘ylashga da’vat etadi.

Butun hayotda xalq manfaatlarini himoya qilgan shoir o‘z ijodiyotida istibdodning ashaddiy dushmaniga aylanadi . Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz uchinchi maqolotida podshoga so‘z o‘qlari bo‘roni bilan hujum etishdan chekinmaydi . Shoirning qabih kirdikorlarini fosh etishdan shoirning qalami mislsiz o‘tkirlik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Navoiy mukammal asarlar to‘plami . birinchi tom Badoyi ul – bidoya Toshkent – 1987
2. “Navoiyning armug‘on “ O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi “ Fan” nashriyoti 2004



ONA TILI VA ADABIYOTI FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

Ismoilova Samiyaxon Abdurashidovna

Namangan shahar 34-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
Tel : 99 893 912 21 72

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalari dars jarayonida ta'lim texnologiyalarining o'rni va afzalliklari haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, ma'naviy hayot, integrasiyalashuv, ta'lim tizimi, ta'lim va tarbiya, o'qituvchi mahorati, texnologiya, pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, interfaol va interaktiv metodlar.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalqimiz ma'naviy hayotidagi ko'plab masalar qatori til masalasi ham kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa, ona tilimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimida integrasiyalashuvini ta'minlash, farzandlarimiz uchun axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalar kun tartibiga qo'yildi va jarayonlar bugun ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

O'tkir Xoshimov yozganidek: "Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida yig'laydi... O'limi oldidan onasini ona tilida tush ko'radi, ona tilida yo'qaydi..." Anglashiladiki, ona tili insonning mavjudligi asosi, tamal toshidir. Inson ona tilisi bilan tirik. Shu bois maktab o'quvchisida lingvistik kompetentlikni shakllantirish, avvalo, ona tilini muqaddas, uning mo'tabarligini, azizu mukarramligini uqtirishdan boshlanmog'i va uni ta'lim oluvchining yosh xususiyatiga ko'ra rivojlantirib borilmog'i zarur. O'qituvchining kasbiy mahorati, o'quvchilarning ongi, bilimi, dunyoqarashini o'stirish, faolliklarini oshirish orqali ta'lim samaradorligiga erishish bilan bog'liq masalalar majmuini ifodalaydi.

Pedagogik jarayonda muayyan mavzu, fan asoslaridan o'quvchilarga ko'nikma darajasida tez va qulay bilim berish ham ta'lim texnologiyasini muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi mahorati ham rol o'ynaydi.

O'qituvchi mahoratiga quyidagi to'rt yo'l bilan erishiladi:

1. Ijodkorlik, izlanish, o'z faoliyatini tahlil qilish, qiyoslash, yo'l qo'ygan uslubiy kamchiliklarini tanqidiy baholab, ularni bartaraf etish, o'z ish faoliyatini yanada takomillashtirish, ustida tinimsiz ishlash, pirovard natijada o'z faoliyatining mukammal, o'ziga xos shakl va uslubini belgilab olish

2. Ilg'or hamkasblari ish tajribalarini qunt bilan o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga tadbiq etish va takomillashtirib borish

3. Xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy o'zganish orqali

4. Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzluksiz tarzda kuzatib borish.

Hozirgi zamon ta'limida bu to'rt omilni sidqildan bajarmay turib, o'qituvchi o'z faoliyatida arzigulik yutuqlarga erishmog'i amri mahol. SHu boisdan ham keyingi yillarda vazirlik tomonidan o'qituvchining ham ilmiy, ham metodik, ham ta'lim texnologiyasi talablarini o'rganib olishlariga yordamlashish maqsadida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Ta'lim mazmunidagi uzluksizlikni ta'minlash, ta'limning maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va uning jarayonlari kabi tarkibiy qismlari orasidagi uzviylikka bog'liq. Chunki, ta'limda har bir fanni o'rganish maqsadidan kelib chiquvchi o'quv dasturi va DTS talablariga mos o'quv mazmuni tanlanadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirish uchun esa qulay bo'lgan metodlar tanlanadi. Tanlangan metodlar yordamida mazmun egallanadi. So'ngra ta'lim uchun tayyorlangan vositalar va ta'lim mashg'ulot shakli tanlanadi.

Har bir darsning sifatli va samarali tashkil etilishi, ko'pincha o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida turli metodlardan, usullardan foydalanadi. Darslar qanday o'qitilishidan qat'iy nazar, maqsad bitta, o'quvchi diqqatini jalb qilish va uni fanga qiziqtirish uni kitob o'qishga o'rgatish, mustaqil bilim olish, ko'nikma va malakasini hosil qilish uchun o'qituvchi tinimsiz ishlashi talab etiladi.

Darslarda ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llash, noan'anaviy dars turlaridan foydalanish ushbu mas'uliyatli vazifani hal qilishning eng oddiy va samarali yo'lidir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida”gi PQ 3160-sonli qarori.

2.Ibragimov X.I. Abdullayev Sh.A. Redagogika O’quv qo’llanma.-Toshkent, Fan, 2004.

3.Choriev R.Yangi pedagogik texnologiyalar – ta’lim-tarbiya sifat va samaradorligi omili. “Xalq ta’limi” jurnali. 2004. №4.

4.Abdullayeva X.A.Mashg’ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish.-Farg’ona, FarDU, 2008.

5.Ishmuhamedov R.,Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).–T.; “Iste’dod” jamg’armasi. 2008.

INTERNET SAYTLARI

1.www.xtv.uz

2.www.ziyonet.uz

3.www.kitob.uz



MUQIMIY IJODI

Dildoraxon Abdullayeva Otamurodovna
29-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Zumradxon G'ofurova
9-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Tel: 91-688-04-94, 99-978-43-04

Annotatsiya: maqolada Qo'qon adabiy muhitining yetuk shoiri Muqimiy ijodi va uning o'ziga xosliklari, ijodining sarmazmunligi misollar asisida yoritilgan.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, she'r, iste'dod, lirika, g'oya

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida maydonga kelgan o'zbek adabiyotining eng yirik va iste'dodli vakillaridan biri Muqimiydir.

Muqimiy taxallusi bilan she'rlar yozgan Muhammad Aminxo'ja 1850-yilda Qo'qonda hunarmand-novvoy oilasida tug'ildi. Muqimiyning otasi Mirzaxo'ja asli toshkentlik bo'lib, taxminan 1835-1836-yillarda Qo'qonga ko'chib borgan va o'sha yerda yashab qolgan edi.

Muqimiyda adabiyotga havas uyg'onishida onasi Oyshabibining o'rni katta bo'ldi. Oyshabibi o'z zamonasining dono, ziyrak, bilimdon ayollaridan bo'lib, xalq og'zaki ijodidan yaxshi xabardor edi. Uning aytgan ertaklari, kuylagan qo'shiqlari Muqimiy dilida shavq-zavq, adabiyotga, san'atga havas uyg'otdi. Shundan bo'lsa kerak, Muqimiy madrasada o'qib yurgan vaqtlaridayoq she'r yozishga kirishadi.

U o'z ijodini lirik she'rlar yozish bilan boshladi. Muqimiy badiiy ijodining salmoqli qismini lirik she'rlar tashkil etadi. Ijodkorning lirikasi hayot go'zalliklarini ulug'lovchi misralarni ifoda etadi. U insonlarni hayotni sevishga chaqiruvchi, hayotdan zavq olishga undovchi satrlari yaratadi. Shundan bo'lsa kerak, Muqimiy lirikasining bu yuksak g'oyalari o'z g'azallarida aks etadi.

Shoir so'lim tabiat manzaralaridan zavqlanishga, hayot lazzatlaridan bahramand bo'lishga chaqiradi. Shoirning tabiat to'g'risidagi ajoyib jo'shqin misralarida insonning pok qalbi, uning hayot go'zalliklariga bo'lgan ishtiyoqi yaqqol ko'rinib turadi. She'rda chizilgan tabiat manzarasi lirik qahramon kayfiyatini yorqin tasavvur qilishga yordam beradi.

Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,

Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar o'rtoqlar.

Xush bu mahfilda tiriklik ulfat-u ahhob ila,

O'ynashib, gohi tabiatni qilaylik chog'lar.

Muqimiy lirikasi mumtoz adabiyotimiz hazinasida saqlanayotgan asarlar orasida o'zining soddaligi, samimiyligi, xalqqa yaqin bo'lganligi bilan ajralib turuvchi asarlardir. Bu jihatdan uning g'azallari xalq she'riyatiga yaqin turadi. SHu boisdan, mehnatkash xalq uning asarlarini g'oyat sevgan va qadrlagan, hatto qo'shiq qilib kuylagan. SHoir she'rlarida uchraydigan Mamajon makay, Nizomxon, Farzinxon, Ismoil naychi kabi ismlar uchraydiki, bular o'z davrining dovrug'dor san'atkorlari bo'lgan. Demak, Muqimiyning ular bilan munosabati samimiy bo'lganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Muqimiy ijodining adabiyotimiz tarixidagi o'rni va ahamiyati benihoya kattadir. Muqimiy o'zining chuqur g'oyaviy, yuksak badiiy asarlari bilan adabiyotimizning yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishiga-o'zbek mumtoz adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga muhim va salmoqli hissa qo'shdi. Shoir qoldirgan ijodiy meros hozirgi zamon kitobxonlariga ham ma'lum va mashhurdir. Uning g'azallari A.Navoiy, Mashrab, Furqat g'azallari singari xalqning e'tiboriga sazovor bo'lgan. Shuning uchun xalq ko'pdan buyon Muqimiy g'azallarini sevib o'qiydi, qo'shiq qilib aytib keladi. O'zining sarmahsul ijodi bilan xalq mehrini qozonganligi, xalq ichida singib ketganligi, kuyga solinib, qo'shiqlarga aylangani, nasldan naslga o'tib yashab kelayotganligidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muqimiy. Bog' aro. T.: Akademnashr. 2010.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T.: "O'qituvchi". 1980.
3. Toshkanov S. O'zbek adabiyotida satirik xarakter problemi. T.: 1987
4. Tojiboyev R. Furqat abadiyati. "Farg'ona" nashriyoti. 2010.
5. Sharq mumtoz poetikasi. (H. Boltaboyev talqinida). T.: 2008



XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ERTAK JANRINING O‘RNI

Ibragimova Guljahon Saydulloyevna
Zarafshon shahar 3-KBFCHO‘IDUM
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada ertak va ertak turlari, adabiyot fani orqali o‘quvchilarga ertak janri haqida ma‘lumot berish, hayotiy masalalarda ertaklarga murojaat etish kabi masalalar yoritilgan O‘zbek xalq og‘zaki ijodi tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko‘tarilishi

Kalit so‘zlar: ertak, xalq donoligi, ertak turlari, odob-axloq O‘quvchilarni ham ma‘naviy, ham axloqiy tarbiyalashda ertakning muhim o‘rni bor. Shu sababdan ham masallar azaldan xalqlarni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgo‘ylik va halollik, mehnat sevarlik, xushmuomalalik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelmoqda.

“Ertak janri ham folklorning janri kabi ijtimoiy-hayotiy, sotsial-siyosiy mundarijaga ega to‘la yoki qisman badiiy fantaziyadan foydalanish orqali uzoq asrlardan buyon xalq kurashi orzu-umidi intilishlari bilan bog‘liq holda yashab kelayotgan xalqimizning ma‘naviy yuldashidir”¹. Chunki har bir davlatning o‘tmishini ko‘rsatib turadigan ko‘zgusi mavjid bo‘ladi agar biz ertak atamasiga e‘tibor bersak bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi “qadimgi”, “avvalgi” degan ma‘nolarni anglatishini bilib olamiz. O‘tgan zamonda bo‘lgan voqealar, hodisalar haqida bayon etish ma‘nosida ertak degan termin ishlatilgan.

Ertak cho‘pchak terminlaridan boshqa o‘zbeklar orasida hikoya, cho‘rchak, afsona, o‘trik, total kabi terminlar ham yuradi.

“Cho‘pchak” yoki “cho‘rchak” so‘zining afsona, ertak, va masal ma‘nolarida ishlatilganligini Alisher Navoiy asarlarida uchramiz.

“Habibim husun vasfin o‘yla muhlik onglakim, bo‘lg‘ay

Qoshinda qissasi Yusuf bir uyqu kelturur cho‘pchak”².

“Ertakalar turli mavzularga bo‘lishni birinchi bo‘lib, Ante Arne boshlab berdi.

U o‘zining “Ertaklar turlarining ko‘rsatmasi” asarida uch turga bo‘ladi:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar.

2. Sehrli (Fantastik)ertaklar.

3. Anekdotlar.

Bularning ichida eng murakkabi ikkinchisidir. H.P.Andreev buni Ante Arne asosida yana to‘rtga bo‘ladi:

a)sehri ertaklar;

b)afsona-ertaklar;

d) novella ertaklar;

e) ahmoq shayton haqidagi ertaklar”³.

O‘zbek adabiyotida ham ertaklarni turli mavzuga qarab bo‘linishi mavjid.

Ular shartli ravishda:

1) hayvonlar haqidagi ertaklar;

2) sehrli ertaklar;

3) hayotiy – maishiy ertaklar;

4) hajviy ertaklaragabo‘linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqadigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy, ya‘ni ko‘chma ma‘noga ega. Masalan, ayyorlik va munofiqlik tulki, qonxo‘rlik, laqmaqlik bo‘ri orqali ifoda etiladi.”Bo‘ri bilan tulki”, “Echkining o‘ch olishi”, “Ochko‘z bo‘ri” kabi ertaklar ana shunday asarlardir.

Sehrlil ertaklar bizda xuddi Yu. M.Skollov aytganidek, turli “sehr”lar bilan bog‘lanadi. Bu sehrli

1 AvzalovM.IErtakjanri // O‘zbektilivaadabiyotijurnli,1998,4-son, 16-15bet

2 AlisherNavoiy, Xazoyinul- maoniy, Iltom , “Navodir ush - shabob”, 323 g‘azal , O‘zbekiston fanlar akademiyasi T., 1959, 321-bet.

3 Buyuk Karimiy O‘zbek xalq ertaklarining ba’zi bir xususiytlari haqida, O‘zbek tili va adabiyoti// 1995, 5-son,58bet



ertaklarning qahramonlari esa sehrli sujet bilan bog‘langan kishilar bo‘ladilar ham doim “sehrli ishlarga” “sehrli joylarga”, “sehrli narsalarga” yo‘liqadilar. Katta-katta qo‘rqinchli va dahshatli tilsimlar ochiladilar. Bunday sehrli ertaklarning qahramonlariga yordam ko‘rsatuvchilar esa sehrli narsalar bo‘ladi.

Sehirli ertaklarning qahramonlari o‘z dushmanlari yoki o‘z boshlariga tushgan kulfatlari turli, g‘ayritabiiy yo‘llar bilan qutuladilar. Sehrli ertaklarda sehir – jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo‘ladi.

Asar qahramonlari har narsa qo‘lidan keladigan mo‘jizakorkimsalar (“Yalmog‘iz” “Devvachcha”)yoki jonlantirilgan narsa yoxud hayvonlardan iborat(“Ur to‘qmoq”, “Ochil dasturxon”, “Semurg”, “Susambil” ertaklari). Bu ertaklarning maqsadi ham turli g‘ayri insoniy illitlar: yolg‘onchilik, johillik, ikkiyuzlamachilikni la‘natlash, aql-farosatlilik, jasurlik, rahimdillik kabi chin insoniy xususiyatlarni targ‘ib qilishdir. Masalan,“Ur to‘qmoq”ertagida laylak kal yoki kambag‘al cholga yordam beradi. Unga “ur to‘qmoq”, “ochil dasturxon”, “pishti palov” kabi asboblarni taqdim etadi. “Uch og‘ayni” ertagida qahramonga chimolilar yordam berib, sochilgan donlarni yig‘ib beradilar.

Hayotiy – maishiy ertaklar. Xalqimiz yaratgan xayoliy hikoyalar orasida shunday turkum ertaklar borki, ularni biz hayotiy- maishiy ertaklar deb ataymiz. Bunday ertaklardagi voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko‘tarilishi va bugungi kungacha saqlanib qolishida Hamrobibi Umaraluqizi, Hasan Xudayberdi o‘g‘li, haydar Baychi o‘g‘li, Nurali Nurmat o‘g‘li, Husanboy Rasul o‘g‘li kabi ertakchi matalchilarimiz katta xizmat qilganlar. Ular og‘izdan yozib olingan o‘zbek xalq ertaklarining bebaho namunalari bizga hanuzgacha ma’naviy zavq berib kelyapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek folklor ocherklari. –T.: “Fan” 1987.
2. Gorkiy M. Adabiyot haqida, Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent. Uzbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962, 265-bet
3. Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. “Musiqqa” nashriyoti, Toshkent-2010.



CHO‘LPON - ADABIYOTSHUNOS

Tilloyeva Madina Toshpo‘latovna
Zarafshon shahar KBFCCHO‘IDUM
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Tel: 91-253-19-90

Annotatsiya: maqolada Cho‘lpon ijodi va uning o‘ziga xosliklari, ijodining sermazmunligi, o‘z davrida adibga bo‘lgan munosabat haqida ayrim qarashlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyotshunoslik, she‘r, iste‘dod, lirika, g‘oya

Adabiyotshunoslik va tanqidchilik xolis bo‘lsa, chinakam ilmiy asoslarga tayansa, haqiqatga xizmat qilishni muqaddas deb bilgan soha bo‘lsa, Cho‘lpon asarlarini tahlil qilish bilan birga, shaxsiyatidagi ana shu favqulotda jihatlarni ham o‘rgangan bo‘lardi. 30-yillaridan boshlab Cho‘lponni qoralovchi maqolalar oqimi yanada kuchaydi. Tabiiyki, ularda Cho‘lponni anglashga intilishdan asar ham yo‘q edi. Cho‘lponning e‘lon qilinmagan kitoblari haqida ham taqrizlar bosila boshladi. Shunday taqrizlardan biri Tuyg‘unning qalamiga mansub bo‘lib, Cho‘lponning hibsga olinishi arafasida, ya‘ni 1937 yil 22 may kuni “Yosh leninchi” gazetasida bosilgan. Bu yo‘lda u qalamkash do‘stlari ustidan oshkora chaquvlar yozishga borib yetdi, chunki yuqoridagi maqolani maqola deb emas, balki organlar qulog‘iga aytilgan chaquv desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Bu taqriz Cho‘lponning nashriyotga topshirilgan, lekin dunyo yuzini ko‘rmay qolib ketgan va shu ko‘yi yo‘qolgan “Jo‘r” degan she‘riy to‘plami haqida. Tuyg‘un, aftidan, buni avval ichki taqriz sifatida yozgan-u, keyin hech qanday andishaga bormay matbuotda e‘lon qilgan. Maqoladagi tahlil yo‘li juda jo‘n- muallif biron she‘riy parchani ko‘chiradi-da, undan ba‘zi iboralarni yulib olib, shular asosida o‘zicha “chuqur” xulosalar chiqaradi. Shunday qilib, 1937- yilning yozida Cho‘lpon qamoqqa olindi, bir yillik dahshatli qiynoqlardan keyin 1938-yilning 4- oktabr kuni otib tashlandi. Mahalliy adabiyotshunos va munaqqidlar bo‘lgan ko‘p yillik va ko‘p pardalik dahshatli fojining ikkinchi pardasi shunday kechdi va bu gal Cho‘lponni jismonan mahv qilish bilan yakunlandi. Cho‘lpon otildi. Cho‘lpon bilan birga yana yuzlab, balki minglab millatning eng asl farzandlari- adiblar, shoirlar, olimlar, davlat arboblari, sarkardalar, xo‘jalik xodimlari, ishning ko‘zini biladigan dehqonlar otildi. Lekin bu bilan ham qorong‘i kechalarning tongi otmadi- xalq boshiga tushgan dahshatli fojia tugamadi- hali uning keying pardalari o‘ynalishi kerak edi. Bu orada fashistlar mamlakatga bostirib kirdi-yu, tarixdagi eng qonli, eng shavqatsiz, eng qirg‘inli urush boshlandi. Shu tufayli Stalin qirg‘inlari biroz susaygandek bo‘ldi, aniqrog‘i, susaydi, boshqacharoq tus oldi. Nihoyat, 1945-yilda urush g‘alabamiz bilan yakunlandi. 1945- yil bahori xalqqa yangi umidlar baxsh etdi- g‘olib xalq endi jinday bo‘lsa-da, tuzukroq yashashdan, loaqal bir parcha baxtga muyassar bo‘lishdan umidvor edi. Har qanday chinakam iste‘dod sohibi kabi Abdulhamid Cho‘lpon ham ijodning deyarlik hamma sohalarida samarali faoliyat ko‘rsatgan. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon, ham publist bo‘lishi bilan birga, barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos, o‘ziga xos tarzda fikrlaydigan san‘atshunos ham bo‘lgan. Uning badiiy asarlari xalq ma‘naviyatini shakllantirishda qancha muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, adabiy-tanqidiy maqolalari ham shunchalik katta qimmatga ega. Ammo istibdod zamonida Cho‘lpon ijodini o‘rganish u yoqda tursin, nomini tilga olish taqiqlangani uchun keng jamoatchilikka emas, hatto adabiyotshunos mutaxassislar ham cho‘lpon ijodining bu qirrasini to‘g‘risida g‘oyat mavhum va tumanli tasavvurga ega edilar. Faqat so‘nggi yillardagina Sh.Turdiyev, N.Karimov, B.Do‘stqorayev, M.Olimov, U.Dolimov, Z.Eshonova, D.Quronov, U.Sultonov kabi adabiyotshunoslarning harakati bilan Cho‘lponning inqilobdan oldin va keyin chop etilgan, hozir esa topilishi amri mahol bo‘lib qolgan jurnallar va gazetalarda sochilib yotgan adabiy- tanqidiy asarlari ilmiy muomalaga kira boshladi. Surxandaryolik yosh cho‘lponshunos N. Yo‘ldoshev esa Cho‘lpon hayoti va ijodiga doir bibliografiya e‘lon qilib, unda birinchi marta Cho‘lpon maqolalarining ro‘yxatini berdi. Bibliografiyada ko‘rsatilishicha, shoirning 1914-1937 yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalari hozircha 63 ta ekan. Maqolalar bilan tanishish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, Cho‘lpon o‘zini professional munaqqid yoki muayyan akademik qoidalar asosida ish yurituvchi adabiyotshunos olim deb hisoblagan emas. Cho‘lpon estetika bobida, san‘at nazariyasida yangi sahifa ochgan emas, jahon san‘atini va san‘atshunosligini batamom yangi yo‘llarga burib yuboradigan tugal ta‘limot ham yaratmagan. Shunga qaramay, yangi o‘zbek



adabioti tarixini Cho‘lponning adabiy-tanqidiy faoliyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yangi o‘zbek adabiyotini shakllantirishda, 20-30 yillardagi g‘oyat murakkab ijodiy kurashlar muhitida unda izchil realistic uslubning ustuvorligini ta‘minlashda Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlarining ahamiyatini kamsitish mumkin emas. Cho‘lpon munaqqid sifatida, birinchi navbatda, adabiyot va san‘atning amaliy masalalari bilan shug‘ullangan, yanada aniqroq aytganda, ma‘naviy uyg‘onish va madaniy rivojlanish asosida adabiy jarayon davomida ko‘ndalang bo‘lgan dolzarb muammolarga javob topishga intilgan, shu tarzda adabiyotni o‘z davrining ilg‘or g‘oyalari bilan boyitishga, Sharq va G‘arbning bebaho tajribasini yangi o‘zbek adabiyotiga olib kirishga harakat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharafiddinov Ozod. Cho‘lponni anglash. — T.: «Yozuvchi», 1994, 46-bet. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. — T.: «O‘qituvchi». 2004. 125-bet
2. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. — T.: «O‘qituvchi». 1999, 128-bet.
3. Cho‘lpon. “Yana oldim sozimni”. Tashkent, Literature and art, 1991.
4. Cho‘lpon. “Adabiyot nadur”. Tashkent, Cho‘lpon, 1994.



DARS JARAYONLARIDA INNOVATSION TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH SIFATLI TA'LIM GAROVIDIR

Usmonova Maxbubaxon Xoshimovna

Namangan shahar 34-sonli umumiy o'rta
ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
Tel 99 894 153 27 Annotatssiya

Ushbu maqolada ta'lim muassasalari dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish sifatli ta'lim garovi ekanligi haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan

Kalit so'zlar: Glaballashuv jarayoni, ta'lim tizimi, ta'lim va tarbiya, texnologiya, pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, interfaol va interaktiv metodlar.

Bugungi kunda tezlik va o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlarini ham hayotimizga kirib kelmoqda. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun, avvalambor, ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali, bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Har bir davlatining bugun va kelajagi mamlakat ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan boshlanadi. Zero, millatning istiqboli shu zaminda ulg'ayib kelayotgan o'g'il-qizlarning kamoli bilan chambarchas bog'liq.

Aslida, yurtimizda ta'lim tizimi islohotiga ustivor vazifa sifatida qaralishining zamirida ham ayni farzandlarimizning kelajagiga qayg'urish orqali Vatanning ertangi taraqqiyotini ko'rish istagi mujassam.

Ana shu maqsadda yoshlarimizga zamonaviy bilimlar berishimiz, yangiliklar bilan qurollantirishimiz, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirmog'imiz zarur. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish, sifat va mazmunga samaradorlikka erishish yangi dastur va standartlarni o'zlashtirish, o'quvchini erkin fikr yuritishga, o'z shaxsiy pozitsiyani qat'iy himoya qilishga o'rgatishga zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati katta.

Innovatsion faoliyatni asl mazmuni amalga yangi texnologiyaning paydo bo'lishi demakdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanish bosqichlari quyidagilardir:

-Birinchii bosqich-tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko'chiriladi.

-Ikkinchi bosqich-mavjud tizimga ayrim yangi moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi.

-Uchinchi bosqich-yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi.

-To'rtinchi bosqich-o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z kontseptsiyasini ishlab chiqadi (yangi texnologiya yaratishi mumkin)

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ular egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishiga, shakllanishi va bilim olish orqali tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan birga boshqaruvchanlik va yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy negizi- bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta'lim jarayonini loyihalashtirish. Demak, innovatsion o'quv jarayoniga yangilik olib kirish, o'quv jarayonini o'quvchi ehtiyoji, hohishi va istaklariga moslashtirish, o'quvchini mustaqil mutolaaga o'rgatish, bilimlarni tayyor holda berish emas, o'quvchilarning bilim olish malakalarini shakllantirishga harakat qilish demakdir.

Ta'lim mazmunining asosini dars tashkil etadi. Dars orqali ilmiy yangiliklar va ahloqiy tarbiya o'quvchilarga yetkaziladi. Bugungi kunda darslarimizni zamonaviy ruhda tashkil etmay turib, har bir darsni san'at darajasiga ko'tarmay turib, belgilangan natijaga, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.



Har bir darsning sifatli va samarali tashkil etilishi, ko'pincha o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida turli metodlardan, usullardan foydalanadi. Darslar qanday o'qitilishidan qat'iy nazar, maqsad bitta, o'quvchi diqqatini jalb qilish va uni fanga qiziqtirish uni kitob o'qishga o'rgatish, mustaqil bilim olish, ko'nikma va malakasini hosil qilish uchun o'qituvchi tinimsiz ishlashi talab etiladi.

Darslarda ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llash, noan'anaviy dars turlaridan foydalanish ushbu mas'uliyatli vazifani hal qilishning eng oddiy va samarali yo'lidir

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Yo'dashev J.G,Usmonov.S.Ilg'or pedagogik texnologiyalar-T.,”O'qituvchi”, 2004.
- 2.Ishmuhammedov R.,Abduqodirov A.,Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: «Iste'dod» jamg'armasi, 2008. -180 b.
- 3.Muslimov N. A,Usmonboyev M.H Innovatsion ta'lim texnologiyalari-T.:”Sano standart” nashriyoti,2015,-81b
- 4.Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar-ta'lim tarbiya sifat va samaradorligi omili “Xalq ta'limi” jurnali.2004.№4.
- 5.Республика илмий-амалий конференцияси материаллари.-Наманган,2013.Б-93.



“NAVOIY” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN

Muxtorjonova Zulxumor

FarDU magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Oybekning “Navoiy” romanida yoritilgan tarixiy haqiqat va badiiy talqin masalalari, Navoiy obrazining xususiyatlari qisqacha o’rganilgan.

Kalit so’z va iboralar: tarixiy roman, adabiy tanqid, tarixiy haqiqat, badiiy talqin, Navoiy obrazi.

Oybek ijodining o’rganilishi bo’yicha ko’plab tadqiqot ishlari olib borilgan va ular orasida yozuvchining romanlarini tahlil qilish, o’rganish alohida o’rin egallaydi. Taniqli adabiyotshunos olimlardan N.Karimov, M.Qo’shjonov, H.Yoqubov, V.Zohidov va boshqa tanqidchilar Oybek ijodiga, xususan, uning romanlariga o’z munosabatlarini bayon etishgan. Bu borada ko’plab dissertatsiya ishlari, maqolalar yozilgan, turli bahs-munozaralarga boy suhbatlar olib borilgan. Shunday bo’lsa-da buyuk yozuvchining ulkan merosini o’rganish, uning ochilmagan jihatlariga e’tibor qaratish va berilgan tahlillarni solishtirib xulosa qilish kabi ishlar hanuz davom etmoqda. Biz quyida o’rganishga jazm qilgan ishda adibning mukammal asarlaridan biri “Navoiy” romani manba bo’lib xizmat qiladi. Oybek “Navoiy” romanini yozishda o’sha davr tarixi va o’zi yashab turgan davrning bog’liqliklarini ajoyib tarzda ochib bergan. Romandagi tarixiy jarayon va u yozilayotgandagi siyosiy tuzum bir-biriga shunday mos tushganki, agar o’quvchi bu ikki davr hodisalaridan yaxshi xabardor bo’lsa, ularni taqqoslay turib hayratga tushadi. Bu haqida adabiyotshunos olim D.Quronov so’z yuritadi, uning fikricha, yozuvchi tarixni tasvirlashda o’z davriga tayanib ish ko’radi ya’ni u o’sha tarixda yashagan emas, undagi voqealarni faqat tarixiy fakt va boshqa ma’lumotlar orqaligina biladi. Tarixiy asar yozishda, undagi davr va jamiyat, insonlar hayotini, xarakterini o’z davridan kelib chiqib gavdalanitiradi. To’g’ri, hamma tarixiy romanlar ham yaratilgan davridagi voqealarga mos bo’lavermaydi, yozuvchi o’zining badiiy asar yaratish g’oyasidan kelib chiqib istaganicha yondashishi, asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar ham tamoman boshqa bo’lishi mumkin va bu tabiiy hol. Lekin yozuvchi tarixiy asarda tarixdan uzoqlab ketolmaganidek, ijod jarayonida o’z olamidan ham uzilolmaydi. Oybekning “Navoiy” romani ayni damda ham tarixiy, ham zamonaviy roman hisoblanadi. Undagi tarixiy haqiqat va zamonaviy davrdagi o’xshashliklarga kelsak, Oybek yashagan davr siyosatidagi qaltisliklar, hukumdor podshohlarning o’z yaqin kishisiga ishonmay ortidan xufya qo’yishi, amaldorlarning bir-birini chaqib xiyonat qilishlari, ilmiy kishilar ustidan qilingan turli tuhmat, balolar Navoiy davrining ham eng og’riqli nuqtalaridan bo’lgan. Bu haqida tanqidchi olim D.Quronovning yuqorida keltirilgan fikri shunday davom ettiriladi: “Oybek o’zi yashagan muhitga munosabatini, uning butun daxshatini o’tmish haqidagi asarlariga singdirib yuboradi. Jumladan, “Navoiy” romanida tasvirlangan qator holatlar: saroydagi firnalar, buyuk shoir ustidan imzosiz xatlar-u chaquvlarning uyushtirilishi, Husayn Boyqaroning o’z do’sti orqasidan xufya qo’yishi, Davlatbaxtning Xadichabegimga xufyalik qilishi...- bularning bari asar yaratilgan davr bilan mushtarak nuqtalardir”¹ Shuningdek olim romandagi Sultonmurod taqdirida qatag’on davrida yashagan ziyolilar qismatiga hamohanglik kuzatilishini ta’kidlaydi. Yuksak iqtidor va bilim sohibi bo’lgan Sultonmurod xarakteri og’ir-bosiq, vazmin, ammo kezi kelganda haqiqat uchun shahd bilan kurashuvchi, yolg’on-u tuhmatlarga bo’yin egmaydigan mard inson sifatida gavdalanadi. Oybek undagi sifatlarni qatag’on qurboni bo’lishi muqarrarligiga qaramay o’z so’zidan qaytmagan, haqiqat uchun jonidan kechishga tayyor bo’lgan millatimiz ziyolilaridan olgan desak adashmaymiz. Navoiy zamonida ko’hna Hirot shoir-u san’atkorga to’la bir maskan bo’lgan bo’lsa, Oybek yashagan muhitda nisbatan kam, ziyolilar xalq ongini o’stirish, millatni ma’rifatli qilish uchun bor kuchlarini ishga solganlar. Navoiy ham xalqning ma’naviyati yuksalishida cheksiz xizmat ko’rsatgani, qoldirgan ilmiy va badiiy merosi va shu bilan birga insonlarning yaxshi turmushi, farovon hayoti uchun ko’plab xayrli ishlar qilgani, turli imoratlar, madrasa, hammom, ko’priklar qurib xalq og’irini yengillatishga harakat qilgani tahsinga sazovordir. Yozuvchining ijodini o’rgangan olimlardan biri Navoiy obrazini yaratishda Oybekni o’zining insoniy sifatlari mos keldi, agar insonda bunday ichki yaqinlik bo’lmasa edi, obraz shu qadar aniq va samimiy chiqmas edi deya xotirlaydi. Darhaqiqat, Oybekning qay darajada

1 D.Quronov. Mutolaa va idrok mashqlari. T.:2013. 77-bet.



insonparvar, adolatli ekanligini romandagi salbiy qahramonlardan biri vazir Majididdinning oxirgi ayanchli qismatini tasvirlashida ko'rishimiz mumkin. D.Quronov ta'kidlashicha, yozuvchi Majididdinni adolat bilan jazolaydi. Vazir mansabidan bo'shatilgach, Nizomulmulkning maslahati bilan qiynoqqa solinadi va ozib-to'zib, harob bir ahvolga tushib qolgan bo'lsa-da, savollarga tetik javob beradi. Oybek bu obrazdan qanchalik nafratlangan bo'lmasin, uning so'nggi ahvoliga "qilmishiga yarasha jazo" deb emas, insof va rahm bilan qaraydi. Chunki, qing'ir ishlarining tagi ochilib jazosini olgan vazir uchun so'ngda bunday sharmandali ahvolga tushib qolishning o'zi og'ir edi. Ushbu tasvirlarda adibning unga achinganini ko'ramiz. Oybek 30-yillar oxirida qatag'on siyosatini yurgizgan ayrim shaxslarning o'zlari ham shu siyosat qurboni bo'lganiga guvoh bo'lgan. Ularga oson bo'lmaganini his qilgan. Shuning uchun romanda bu kabi tasvirlarni payqab olish ziyrak o'quvchining mutolaa zavqini yana bir karra oshiradi. "Navoiy" romanida tarixiy fakt va badiiy to'qima bir-birga uyg'un tushgan. Undagi tarixiy fakt badiiy to'qimaning asosini tashkil etgan. Navoiy shaxsini biz bilmagan qirralarini ochib berishda juda nozik badiiy did va ulkan tasavvurga tayanib ish yuritilgan. Navoiyni shoir sifatida tanigan, uning vazmin, yuvosh xarakterini bilgan inson qo'lida qilich tutib jang qilishini ko'p ham tasavvur qilolmaydi. Romanda Husayn Boyqaro taxtini egallab olgan yosh shahzoda Yodgor Mirzoni tutishda Navoiy jonbozlik ko'rsatgani, podshohning amriga qaramay avbosh shahzodani tutishga shoshilmagan navkarlarga toqat qilolmay, o'zi qilich yalong'ochlab harakat qilgani o'quvchining zavqini oshiradi. Navoiyning bu harakati qolgan navkarlarni uyaltiradi, ular ham shoirning ortida ildamlilik bilan harakatga tushishadi. Navoiy nafaqat ilmda, balki shijoat va mardlikda ham o'rnak bo'la oladi. U yaqin do'sti bo'lgani uchungina emas adolatli va qolgan hukmdorlarga nisbatan mard va insonparvar bo'lgani uchun Husayn Boyqaroning taxtda hukmronlik qilishini istaydi. Shu orqali xalqning tinchligi, farovonligi ta'minlanishini o'ylaydi. Husayin Boyqaroga qarshi chiqqan, amaldorlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lgan boshqa shahzodalarni ham faqat Navoiygina to'g'ri yo'lga sola oladi. Uning qilgan oqilliklari, ko'rsatgan jasoratlari insonlar qalbida yaxshilik urug'i unishiga sabab bo'ladi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

- 1.D.Quronov. Mutolaa va idrok mashqlari. T.:2013. 77-bet.
- 2.OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. MS Dehkonova - Theoretical & Applied Science, 2020
3. Dehqonova Maxsuma Shavkatovna, Sabirdinov Akbar G'afurovich, S.A.Xo'jaev, & Muxammadjonova Go'zalxon. (2022, May 1). 80 YEARS OF BAKHTIYOR NAZAROV IN UZBEK LITERARY CRITICISM. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6519217>

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000